

**Gulimmatov Ikrom Baxtiyarovich**

Urganch davlat universiteti

“Geodeziya, kartografiya va kadastr” kafedrası dotsenti v.b., g.f.f.d(PhD).

**Khaytimmatov Sanjarbek Xusaynboy o‘g‘li**

Urganch davlat universiteti

“Geodeziya, kartografiya va kadastr” kafedrası o‘qituvchisi

**Jumabayev RuslanRaximberganovich**

Urganch davlat universiteti

“Geodeziya, kartografiya va kadastr” kafedrası o‘qituvchisi

**Gulimmatov Ikrom Bakhtiyarovich**

(PhD) docent of the Department "Geodesy, Cartography and Cadastre", Urganch State University

**Khaytimmatov Sanjarbek Khusaynboy ugli**

teacher of the Department of "Geodesy, Cartography and Cadastre", Urganch State University

**Jumabayev Ruslan Rakhimberganovich**

teacher of the Department of "Geodesy, Cartography and Cadastre", Urganch State University

220100, Urgench city, Uzbekistan

## **AHOLI MANZILGOHLARI MORFOLOGIYASINING HUDUDIIY JIHATLARI**

**(QISHLOQ AHOLI MANZILGOHLARI MISOLIDA)**

**ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ МОРФОЛОГИИ**

**ПОСЕЛЕНИЙ (ПРИМЕНИТЕЛЬНО К СЕЛЬСКИМ ПОСЕЛЕНИЯМ)**

**TERRITORIAL ASPECTS OF SETTLEMENT MORPHOLOGY**

**(APPLICABLE TO RURAL SETTLEMENTS)**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy tadqiqot ishida, qishloq aholi manzilgohlari joylashuvi, tarkibiy qismlari va morfoloqiyasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganildi. Aholi manzilgohlari morfoloqiyasi bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Aholi manzilgohlari, qishloq, sotsiologik yondashuv, aholi joylashuvi shakllari, tarqoq va guruhlashgan aholi manzilgohlari.

**Аннотация:** В данной научно-исследовательской работе изучены факторы, влияющие на расположение, компоненты и морфологию сельских поселений населения. Проанализированы научные исследования зарубежных и отечественных ученых по морфологии поселений.

**Ключевые слова:** Сельских поселения населения, социологический подход, формы расселения населения, рассеянные и групповые поселения населения.

**Abstract:** In this scientific research work, the factors affecting the location, components and morphology of population rural settlements were studied. Scientific studies of foreign and local scientists on the morphology of settlements were analyzed.

**Key words:** Population settlements, village, sociological approach, forms of population settlement, scattered and grouped population settlements.

**Kirish.** Qishloq aholi punktlarining morfoloqiyasi deganda qishloq joylaridagi barcha obyektlar jumladan ekin yerlari, binolar, yo'llar va ochiq maydonlarning tabiiy joylashuvi, tarkibi va fazoviy tashkil etilishi tushuniladi. U

tabiiy, madaniy, iqtisodiy va tarixiy omillarning o'zaro ta'sirini aks ettiradi.

Jahon miqyosida aholi soni ortishi natijasida ularning turli xil resurslarga bo'lgan ehtiyoji ham kengayib bormoqda. Aholi joylashuvining hududiy shakli bu aholi manzilgohlaridir. Aholi manzilgohlarini o'rganish o'ziga xos jihatlarga ega ular bir nechta tarkibiy qismlardan iboratdir. Ba'zilar fazo bilan bog'liq (morfologiya va joylashuv kabi), ba'zilar sotsiologiya, tarix, arxitektura, siyosat va boshqalarni o'z ichiga oladi. Geografik jihatdan tadqiq qilish yo'nalishini ma'lum bir xususiyat yoki qismni aniq belgilash qiyin, chunki ko'pchilik obyektlar o'zaro bog'liqdir. Aslida, aholi manzilgohlarini o'rganish yagona ijtimoiy fan uchun murakkab obektlar majmui sanaladi. Qishloq va shaharlar misolida aholi manzilgohlarini o'rganish natijasida ko'plab va katta hajmdagi tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning asosiy qismini geograflar tomonidan bajarilgan. Chunki, ushbu tadqiqotlarning eng muhim jihatlaridan biri bu obyektning kompleks yondashuv asosida o'rganishidir.

Ijtimoiy hududiy tizimlar qatorida qishloq va shaharlar, yoki ularni o'rganish geografiya fanlari tadqiqot doirasiga kiradi. Inson tomonidan yaratilgan bu tizimlar tabiiy tizimlarga nisbatan dinamik xususiyatga ega ekanligi bilan o'ziga xosdir. Ushbu tizimlar inson sivilizatsiyasining tarkibi qismi bo'lib, atrof-muhitning shakllanishi bilan birga rivojlanib boradi. Qishloqlar, shaharchalar (posyolkalar), shaharlar, va shu kabi boshqa tushunchalar uchun umumiy atama aholi manzilgohlari hisoblanadi. Aholi manzilgohlarini yashash yoki ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda foydalanish maqsadida tashkil etilgan, o'zaro bog'langan fazoviy birlikni tashkil etuvchi texnogen tuzilmalar (to'plam) yig'indisi sifatida tushunish mumkin.

**Asosiy qism.** Har qanday aholi manzilgohini o'rganish uchun biz bir nechta jihatlarni hisobga olishimiz kerak. Bularga shakllanishi, morfologiyasi ya'ni tarkibiy-tuzulishi, tarmoq tizimi, vertikal ko'rinishi, shakli (formasi), individual komponentlari, arxitekturasi, ijtimoiy-iqtisodiy muhit, tabiiy-ekologik joylashuvi va boshqalar kiradi. Ushbu jihatlarning aksariyati geografik xususiyatga ega,

ammo tadqiqot iqtisodiyot, sotsiologiya va arxitektura kabi bir qancha boshqa fanlar tadqiqot obyektiga mos keladi. Aslida, umumiy tadqiqotning sintezi kompleks yondashuv geografik xususiyatga ega bo'lib, ilmiy va optimall yechim hamda xulosalar chiqarishda integratsiyalashgan tadqiqot metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu aholi manzilgohlari geografiyasida qo'llaniladigan model va paradigmalar asosan, iqtisodiy-ijtimoiy va sotsiologik tamoyillarga asoslanganligida yaqqol ko'rinadi. Biroq, geograf muhim fazoviy, hududiy jihatlarni ochib beradi. Misol uchun, sotsiolog aholi manzilgohi ichidagi etnik segregatsiyani aniqlashi mumkin, ammo uni xaritaga olish geografga qoladi. Iqtisodchi bozor hajmi, hinterlend yoki shahar ehtiyojlarini tahlil qilishi mumkin, ammo shahar hududini tabiiy-ekologik, iqtisodiy ijtimoiy jihatdan tafovutlarini tavsiflash geograflar tomonidan bajariladi. Aholi punktlarini o'rganish har doim iqtisodiy tamoyillar, sotsiologiya va tarix bo'yicha asosiy bilimlarni talab qiladi, chunki bular geografning uslubiy asosini yaratadigan muhim yo'nalishlardir. 1960-yillardan statistik metodning aholi manzilgohlari o'rganishga kirib kelishi tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirdi. Bugungi kunda kosmik metodlar va geografik axborot tizimlarining tadqiqotlarga jalb qilinishi aholi manzilgohlarining dinamikasi va bunday o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ochib beradigan izlanishlarning yangi natijalarni taqdim etmoqda. Aholi manzilgohlari geografiyasi bu jihatlarning barchasini birlashtirib, ularning "fazoviy joylashuvi" hamda boshqa munosabatlarini o'zaro bog'liq holda tadqiq qiladi.

Aholi manzilgohlarini tadqiq qilishga bo'lgan qiziqish II Jahon urushi va fan texnika inqilobi (FTI) hamda 1960-yillardagi "Demografik portlash" ta'sirida ortib bordi. Ammo sohada "qishloqshunoslikka" emas, balki "shaharshunoslikka" ko'proq e'tibor qaratildi. Qishloq aholi punktlari ba'zilar tomonidan mintaqaga xos va faqat tavsifiy tadqiqotni talab qilishi mumkin deb hisoblangan. Haqiqatan ham, bir mintaqada qancha qishloqlar bo'lsa, shuncha qishloq shakllari mavjud va ularning har biri alohida tekshirishni talab qiladi. Ba'zan qishloqlarni klassifikatsiyaga ajratish ham juda murakkab masalaga aylanadi. Biroq, statik

shaharlarning shakllanishi, rivojlanishi, funksional xususiyatlari bir xil qonuniyatlar asosida sodir bo‘ladi. Ayniqsa, hududiy mehnat taqsimoti, FTI, globallashtiruv natijasida shaharlarning shakllanishi, morfologiyasi, funksional tiplari bir-biriga o‘xshash bo‘lib bormoqda. Bu jarayonni E.M.Rojerning “Yangiliklar diffuziyasi” nazariyasi bilan izohlash mumkin [1].

Osiyoning eng qadimiy svilizatsiya markazlaridan biri Hindistonda ham aholi manzilgohlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Patrik Geddes, S.Goshning tadqiqotlarida Bixar va Uttar-Pradeshdagi markazlari, qishloq aholi manzilgohlari hamda Kalkutta shaharlarini hududiy dinamikasini tadqiq qilgan[5].

Sharqiy Osiyoda aholi manzilgohlari tadqiq qilish asosan Xitoyda aholi soni keskin oshishi va yerdan foydalanishning alohida toifasi sifatida aholi manzilgohlarining hududiy kengayishi hamda buning ijtimoiy ekologik oqibatlarini o‘rganishga keng e‘tibor qaratilgan. Aholi manzilgohlarining ham gorizontal ham vertikal o‘sish intensivligi yuqoriligi sababli er resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan kompleks amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, J.CHeng, J.Jou tomonidan so‘nggi 60 yilda hududiy dinamikasi juda yuqori bo‘lgan Uxan shaxri ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi va istiqbollari kompleks geografik metodlar va GAT texnologiyalari asosida tahlil qilingan[2].

MDH davlatlarida ham aholi va aholi manzilgohlarini tadqiq qilishga sotsiologiya va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya doirasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. V.A.Kopilov fikricha, aholi geografiasining obekti aholi va aholi manzilgohlari tizimidir, predmeti esa ularning dinamikasi, tarkibi, makon va zamonda rivojlanishining hududiy xususiyatlarini o‘rganish deb ta’kidlagan [8]. Bundan tashqari A.A.Anoxin, D.V.Jetin kabi olimlar ham aholi manzilgohlarini aholi geografiasining muhim tadqiqot obekti sifatida ko‘rsatganlar. V.V.Pokshishevskiy esa aholi geografiasini iqtisodiy geografiyaning tarkibi qismi bo‘lib, aholini hududiy tizimlari va tarkibi bilan bir tizim doirasida tadqiq qilish kerak deb hisoblaydi [6].

O‘zbekistonda aholi va aholi manzilgohlarini tadqiq qilish bo‘yicha izlanishlar XX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshladi. Bu borada M.K.Qoraxonov boshchiligidagi “Aholishunoslik ilmiy tadqiqot laboratoriyasi” ning roli katta bo‘ldi. Ushbu markaz tomonidan O‘rta Osiyoning XIX asr oxirigacha bo‘gan aholiga oid ma‘lumotlari to‘plangan. Aholining hududiy jihatlar va joylashuvi bo‘yicha N.Smirnov, Z.Akramov, T.Raimov, O.Atamirzaev, A.Soliyev, A.Qayumov, Z.Rayimjonov, M.Bo‘riyeva, Y.Ahmadaliyev, Z.Tojjeva, N.Komilova, S.Tashtaeva, M.Nazarov va boshqalar tadqiqotlar olib borgan.

A.Soliyev ushbu tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha nafaqat O‘zbekiston balki O‘rta Osiyo miqyosida ilmiy izlanishlar olib borgan. A.Soliev “O‘rta Osiyo respublikalarida zamonaviy aholi joylashuvi tizimlari rivojlanishining omillari va jarayonlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1986-yil). Bundan tashqari Soliev O‘zbekiston qishloqlari va shaharlari geografiyasi, aholi manzilgohlarini tipologiyaga ajratish masalalarini o‘rgangan [4]. Respublikamizda shaharlarni tadqiq qilishda ilk ilmiy tadqiqotlardan biri N.Smirnov tomonidan Farg‘ona vodiysi shaharlari misolida olib borilgan [3].

Aholi manzilgohlari morfologiyasi, birinchi navbatda, turar – joylarning joylashuvi, rejasi va ichki tuzilishi bilan bog‘liq. Qishloq aholi punktlari morfologiyasi deganda qishloqlarning ichki tuzilishi va joylashuvi tushuniladi. Shaharlarning morfologiyasi esa ancha murakkab bo‘lib, aholi soni bajaradigan funksiyasiga bog‘liq holda murakkablashib boradi. Aholi manzilgohlarining morfologiyasiga nafaqat tabiiy sharoit va resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy makonda joylashuvi, formasi funksional xususiyatlari, aholiga xos bo‘lgan jihatlar ham (masalan, aholining etnik diniy tarkibi, tabaqalanishi bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aholi manzilgohlarining morfologiyasi ularning ijtimoiy-madaniy tuzilishini, ularning tabiiy ekologik hamda sanitariya sharoitlarini, shuningdek, hududning potensial rivojlanish imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi.

Qishloq aholi punktlari morfologiyasi qishloqlarning er rejasi va shaklini o‘rganadi. Bular uylar va dalalarning joylashishidan kelib chiqadi va jamiyat

tomonidan atrof-muhit bilan munosabatlari natijasidir. Ushbu munosabatlarning ba'zilari murakkab emas va shuning uchun tushunish oson. Ular odatda tabiiy sharoit va qulayliklarga tegishli. Mavsumiy shamollarning esishi va yorug'likning tushishidan kelib chiqan holda tabiiy yorug'lik va issiqlikdan samarali foydalanish maqsadida qishloq aholisi ushbu ikki yo'nalishni to'siqlardan xoli qilishni xohlaydi, bu esa qishloqning ma'lum bir formasi shakllanishiga olib keladi. Bundan tashqari, tabiiy sharoit va qulaylik ijtimoiy raqobat va tabaqalanishni yuzaga keltiradi. Masalan, musson iqlimli hududlarda toshqin xavfi yuqori tekisliklarida qishloqning xavfsiz qismlarida ko'proq badavlat odamlar egallab, kambag'allarni suv havzalari atrofida pastqam botqoq joylarda to'planishga majbur qiladi. Bu jarayon ijtimoiy tabaqalanishning aholi manzilgohlari morfologiyasiga o'ziga xos ta'siri hisoblanadi.

Aholi manzilgohlarining shaklni yagona munosabatlar majmuasi bilan tushuntirish qiyin, ko'p hollarda bu bir nechta omillarning natijasida sodir bo'ladi. Asosan chiziqli shaklga ega bo'ladigan daryo, kanal bo'ylaridagi aholi manzilgohlarida tarqoq va hatto ko'p yadroli formalar ham uchraydi. Hindistonning shimoliy tekisliklarida, O'zbekistonda Farg'ona vodiysida turli xil formaga ega aholi manzilgohlari ko'p uchraydi.




Ushbu bosqichda qishloq shakliga nisbatan qo'llaniladigan atamalarga aniqlik kiritish kerak. *Morfologiyaning* o'zini turar-joy shakli va yerdan foydalanish rejasini o'rganish sifatida belgilash mumkin. Forma yoki shakl va *tur atamalari* turli olimlari tomonidan turlicha ishlatilgan. Shakl *atamasi* binolar orasidagi masofani bildiradi (masalan, klasterli va tarqoq formalar). *SHakl* to'rtburchaklar, radial yoki chiziqli kabi qishloqlarning geometrik shakllarini tasvirlash uchun ishlatiladi. Biroq, ba'zi olimlar *ixcham* va *tarqoq (klaster va dispers) aholi punktlarini* farqlash uchun *tipdan* va shaklni tasvirlash uchun *foydalanadilar (1-rasm. to'rtburchak forma, chiziqli, yulduzsimon, halqasimon, T-chorraha, kesishmali va boshqalar)*. Ushbu tadqiqotda uylarning ixchamligi yoki tarqalishi uchun *forma* ishlatiladi, Aholi punktlarini formasi yoki shakl-tiplarga ajratish



nafaqat taksonomik jihatdan, balki qishloq joylarini kelajakda rejalashtirish uchun ham dolzarbdir.

Qishloq aholi manzilgohlari shakllanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi (2-rasm). Biroq muayyan bir omilni asosiy yoki doimiy ekanligini aniqlash murakkab jarayon. Qishloqlarning joylashuvida suv ta'minoti va er resurslarining sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Suv ta'minotiga bog'liq holda yerdan foydalanish darajasi va shunga mos mehnat resurslari talab qilanadi. SHu boisdan suv ta'minotiga bog'liq holda aholi manzilgohlari hajmi va shakli belgilanadi. A.Soliyev Qishloq joylari geografiyasi asarida Qishloqlarning hududiy kengayish intensivligi kanallar suv hajmiga to'g'ri proporsional bo'lishini Zarkent, Zarmitan qishloqlari misolida tahlil qilgan.



<b>Chiziqli shakl</b>	<b>Kesishmali shakl</b>	<b>Yulduzsimon shakl</b>
		
<b>T-chorraha shakl</b>	<b>Halqasimon shakl</b>	<b>Ikki tomonlama shakl</b>


1-rasm Aholi manzilgohlari shakllari Manba: Google Eart Xorazm viloyati hududi

Qishloqlarning joylashuvida relyef qiyaligi, tepaliklar, yoyilmalar, qayir zonalarining amaliy ahamiyati mavjud. Tog‘ oldi tepeliklarida aholi spiralsimon yoki halqa shakllarni hosil qilsa, qayir zonalarida va konussimon yoyilmlarda uchburchak shakldi cho‘zilgan formalarni uchratish mumkin. Alabata, aholi joylashuvining har qanday shaklida xavfsizlik darajasiga kuchli e‘tibor qaratiladi. Xavfsizlik omili sifatida tabiiy, ekologik yoki iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatarlarga nisbatan himoyalanganlik darajasi tushuniladi.

Davlat tomonidan yerlarni o‘zlashtirish natijasida yangi hududlarga aholi joylashtiriladi. Bunday jarayonlarda aholi asosan katta yo‘l bo‘ylarida sug‘orma dehqonchilik hududlarida klasterlangan formalarni hosil qiladi. Masalan, 1960-yillarda Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi natijasida 30 dan ortiq zamonaviy xo‘jaliklar (Sovxoz) tashkil etilgan.

Aholi punktlarini morfologiyasi nafaqat tabiiy makon nuqtai nazaridan shakllanadi, balki uning turli tarkibiy qismlari ijtimoiy-iqtisodiy makonga bog‘liq holda namoyyon bo‘ladi. Bu esa binolarni tartibga solish, ko‘chalar va dalalardan foydalanish hamda umuman aholi punktlarining funksional xususiyatlarini nazorat qilishda bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, turli xil millat yoki ijtimoiy qatlamga ega guruhlar bir-biriga yaqinligi sababli o‘ziga xos zonalarni hosil qilib, hunarmandlar, savdogarlar, kosiblar yoki elita qatlam yashaydigan hududlarni shakllantiradi.





2-rasm Qishloq aholi manzilgohlari shakliga ta'sir qiluvchi omillar (A.Doxiadis)

Ba'zi mutaxassislarning fikriga ko'ra hozirgi kunda zamonaviy qishloqlar asosan (nucleated) yadroli yoki konsratsiyalashgan shaklda tashkil qilinmoqda [7]. Bunga asosiy sabab qishloq xo'jaligi yerlarini saqlab qolish, xavfsizlik, infratuzilma xizmatlari bilan kompleks ta'minlash hamda aholining guruh bo'lib yashashga moyilligi sifatida ko'rsatiladi. Masalan, Yevropaning aksariyat davlatlari va O'zbekistonning Xorazm viloyatida deyarli 95% (Tuproqal'a tumani bundan mustasno) aholi manzilgohlari konsratsiyalashgan formaga ega.

Uelsda Angliya-Normand monarxiya mulkchilik shakli ta'siri tufayli yopiq mulkka ega qishloqlar ustunlik qiladi. Katta shaharlar yaqinida qishloq xo'jaligi hududlari bo'lmagan, faqat turar-joy vazifasini bajaradigan (residensial) qishloq aholi punktlari paydo bo'lgan. Ular suburbanizatsiya jarayonining boshlanishini belgilaydi [7]. Buyuk Britaniyadagi aksariyat qishloqlarning yana bir jihati shaharlarga xos qulayliklarning tashkil qilinganidadir, shu sababdan qishloqlar va shaharlar o'rtasidagi chegarani aniq ko'rsatish imkoni yo'q.

Bundan tashqari aholi manzilgohlari shakllanishida aksiomatik qonuniyat o'z kuchini ko'rsatadi, unga ko'ra zamonaviy iqtisod va ilg'or texnologiyalarga ega jamiyatlar doimiy aholi punktlari chegaralarini balandlik va kenglik bo'yicha, tabiiy sharoit nuqtai nazaridan qulay bo'lgan bo'shliqlarga hisobiga kengaytirish va egallash qobiliyatiga ega. Bu jarayon F.Ratselning hududni madaniyat va mafkuraviy jihatdan egallash nazariyasiga o'xshash, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy

jihtadan yetakchi bo'lgan qatlam madaniyati boshqa hududlarga tez tarqaladi. Bu esa aholi manzilgohlarining rivojlanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Umuman olganda qishloq aholi manzilgohlari morfologiyasiga hududning topologiyasi, tabiiy sharoiti, iqtisodiy holat va faoliyat, madaniy va tarixiy omillar, davlat siyosati, va infratuzilma rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi. Aholi manzilgohlarini morfologiyasi juda murakkab bo'lib, turli xil yondoshuv, metod va mezonlar asosida shakllanadi. yer yuzida mutloq bir xil hudud bo'lmagani singari bir xil aholi yashash joylari ham bo'lmaydi. Shu sababdan tadqiqotlarda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda aholi manzilgohlari morfologiyasi va boshqa jihatlarni tadqiq qilish hamda shu asosda klassifikatsiyalarga ajratish orqali izlanishlarni olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. E.M. Rogers "Diffusion of innovations" New York, USA 1962, 1983-y. p-59-63-<https://researchcor.com/diffusion-of-innovation-theory-doi/>
2. J.Cheng, J.Zhou Urban Growth in a Rapidly Urbanized Mega City: Wuhan, Springer Japan 2015 R.B. Singh (ed.),Urban Development Challenges, Risks and Resilience in Asian Mega Cities, DOI 10.1007/978-4-431-55043-3\_16 .  
[http://www.researchgate.net/publication/275016466\\_Urban\\_growth\\_in\\_a\\_rapidly\\_urbanized\\_mega\\_city\\_-\\_Wuhan\\_PRChina](http://www.researchgate.net/publication/275016466_Urban_growth_in_a_rapidly_urbanized_mega_city_-_Wuhan_PRChina)
3. Soliyev A., Tashtayeva S. Shaharlar geografiyasi O'quv qo'llanma.Toshkent, Barkamol fayz media nashriyoti 5,10,29-bet
4. Soliyev A.S. Tanlangan asarlar. Toshkent 2018, 6-130,133-bet
5. Sumita Gosh "Introduction to settlement Geography". Haydarabad, India. 1998 p-4-25
6. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi O'quv qo'llanma, Toshkent, 2020, 5-19-bet.
7. Vasile Surd "Geography of settlements" Romania 2009. 27-47-p
8. И.С.Жекулин "Введение в Географию" Санкт-Петербург,Россия 1989,с 19-33